

**INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA LINGVOKULTUROLOGIK  
XUSUSIYATLARNING NAMOYON BO’LISHI**  
**ПОЯВЛЕНИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В  
АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ**  
**LINGUOCULTURAL CHARACTERISTICS OF ENGLISH  
PHRASEOLOGISMS**

**Nasridinov Muxridin Vaslidin o’g’li**

Ingliz tili kafedrası o’qituvchisi, Farg’ona davlat universiteti

[mvnasridinov@mail.ru](mailto:mvnasridinov@mail.ru)

**Umurzaqova Muxayyoxon Rahmatullo qizi**

Lingvistika (ingliz tili) yo’nalishi

Ikkinchi kurs magistranti, Farg’ona davlat universiteti

[muhayyo10@bk.ru](mailto:muhayyo10@bk.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola frazeologiya sohasi va uning lingvokulturologiya bilan bog’liqligini keng mushohada qilib, unga turli misollar keltiriladi va o’zbek va ingliz tili jihatlaridan tahlil qilinadi.

**Kalit so’zlar:** lingvokulturologiya, idioma, frazeologiya, an’ana, urf-odat, millat, mentalitet, stereotip, milliy marosimlar, maqol, matal.

**Аннотация.** В данной статье дается широкий обзор области фразеологии и ее связи с лингвокультурологией, приводятся различные примеры и анализируется ее с аспектов узбекского и английского языков.

**Ключевые слова:** языковая культура, идиома, фразеология, традиция, обычай, народ, mentalitet, stereotip, национальные обряды, пословица.

**Abstract.** This article gives a broad overview of the field of phraseology and its connection with linguoculturology, provides various examples and analyzes it from the aspects of the Uzbek and English languages.

**Key words:** language culture, idiom, phraseology, tradition, custom, people, mentality, stereotype, national rituals, proverb.

Hozirgi zamon tilshunosligida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o‘rganishi til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi, chunki turg‘un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog‘liqdir. Ular ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an‘ana va marosimlar asosida shakllangan. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo‘lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o‘tmishi bilan bugungi hayotini bog‘lovchi ko‘prik bo‘lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o‘rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiy onomastik komponentli frazeologik birliklarning kelib chiqishini quyidagicha ta’riflaydi.

1) maqol va hikoyalar asosida shakllangan;

*There is many a slip twixt the cup and the lip — irg‘ib o‘tmay — xo‘p dema, oldindan hovliqma, tug‘ilmagan buzoqqa qoziq qoqma.*

*Cut the Gordian knot yoki cut the knot — chigal masalani yechimini topmoq; = kalavaning uchini topmoq.*

2) kasbiy lug‘at asosida shakllangan;

*go for a Burton — o‘lmoq, ko‘z yummoq, izsiz yo‘qolmoq.*

(Barton – Staffordshir viloyatidagi pivo ishlab chiqaradigan kichik shahar)

*Write in water — bekordan bekorga mehnat qilmoq.*

3) hazil va latifalar asosida tuzilgan;

*The smell of the lamp — (s.s.) chiroq hidi (birikmada yozuvchi o‘z asarini yozayotganda unga nur taratayotgan lampadagi moy hidi haqida so‘z bormoqda); zo`rma-zo`raki, sun`iy,*

*apple of Sodom — chiroyli, ammo aynigan ho‘l meva;*

4) injildagi tasvirlar va parchalardan kelib chiqqan;

*Adam‘ apple — qo‘shimoq, kekirdak olmasi;*

*A forbidden fruit – ta’qiqlangan ho’l meva*

5) antik dunyo mamlakatlari ta’sirida shakllangan;

*Achille’s heel yoki the heel of Achille’s — Axilles tovon; yagona zaif tomon, joy.*

*Cassandra warnings — (k.u.) mensilmayotgan, lekin ayni vaqtda sodir bo’layotgan biror voqea haqida ogohlantirish.*

6) xorijiy iboralar tarjimasida shakllangan;

*The golden age — oltin asr.* Ibora birinchi marta shoir Gesiodning “Mehnatlar va Kunlar” she’rda uchragan. She’r Saturn davrida yozilgan bo’lib, bu davrda odamlar hudolardek tashvishsiz, janjalsiz, urushsiz, og’ir majburi mehnatlarisiz yashashgan.

*The horn of plenty — osmondan yog’ilgan, juda serob, mo’l-ko’l.*

7) adiblarning hikmatli so’zlari asosida shakllangan;

*Lares and Penates — (k.u.) o’z uying — o’lan to’shagging.*

Lar va Penat qadimgi rimda uy o’choqlarining homiylari bo’lishgan.

*Rise like a phoenix from its ashes — (k.u.) kuldan qaqmus yaralgandek.*

8) mashhur kishilarning hayotiy tajribalaridan olingan iqtiboslar asosida shakllangan;

*The unwritten law — yozilmagan qonun.*

9) Platonning falsafiy asarlaridan keltirilgan iboralar:

*Hercules` Pillars yoki the Pillars of Hercules —*

a) *chek, chegara, had.* Qadimgi odamlar nazarida Gibraltar bo’g’ozining qirg’oqlarida qarama-qarshi joylashgan ikki qoya, ya’ni hozirgi kundagi Gibraltar va Seuta qoyalari qadimgi xalqlar yashovchi quruqliklar tugaydigan joyni bildirgan;

b) (k.m.) qadimgi yunon afsonasiga ko’ra Gerakl butun Yevropa va Afrikaning Liviya davlatidan to’xtovsiz yurib o’tgan va o’z sayohatining ustaliklari sifatida Gerkules ustunlarini qo’yib chiqqan.

Quyida frazeologik birliklarni ingliz va o’zbek tillarida qiyoslab tahlil qilishdan avval, lingvokulturologik jihat nima ekanligini asoslab beramiz.

Lingvokulturologiya insonning ijtimoiy faoliyatini o’zida qamrab oluvchi milliy mentalitet jarayoni hisoblanib, muayyan stereotip va milliy urf-datlar orqali namoyon

bo‘ladi. Lingvokulturologiya aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas; uning doirasiga so‘zlovchi va tinglovchining o‘zlarigagina tushunarli bo‘lgan o‘zaro milliy munosabatlari va vaziyati bilan bog‘liq ma’lum bir masala kiradi.

Misol uchun:

- Milliy an‘ana, urf-odatlar
- Bayram, to‘y-tomosha, marosimlar
- so‘zlovchi tomonidan tinglovchining umumiy bilim jamg‘armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va xislatlariga baho berilishi
- maqol, matal, hikoya, asoyir, mif va afsonalar.

Endi quyidagi frazemaga e’tibor beraylik:

**think on one’s feet** frazeologik birliksi o‘zbek tiliga so‘zma so‘z tarjima qilinganda, “**kimningdir oyog‘i ustida o‘ylamoq**” kabi o‘zbek tiliga tushunarsiz ma’no beradigan so‘zlar jamlanmasini anglatadi, xolos. Biroq, uni nutqda yoki ma’lum bir asarda shundayligicha tarjima qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun, tilimizda unga mos bo‘lgan iboralarni qidirib ko‘ramiz.

*When you’re called on in class, you have to be able to **think on your feet**.*

Ushbu inglizcha namunani tilimizga quyidagicha tarjima qilish mumkin.

*Dars jarayonida seni chaqirishganida, hamisha **hayoling o‘zing bilan bo‘lishi** lozim.*

Yoki:

*I had never heard about the company before, so I had to **think on my feet**.*

*Men u kompaniya haqida avval hech qachon eshitmagandim, shuning uchun **yashin tezligida qaror qilishimga** to‘g‘ri keldi.*

Guvohi bo‘lganimizdek, ingliz tilidagi aynan bir xil iborani o‘zbek tiliga ikki xil tarjima qilishimizga to‘g‘ri keldi, buning sababi pragmatika. Ya’ni pragmatik ma’no nutq jarayoniga mos bo‘lishi uchun nutqda tarjima mahoratining o‘rni beqiyos.

Agar yuqoridagi gapni o‘zbek tilimizga:

*“Men u kompaniya haqida avval hech qachon eshitmagandim, shuning uchun **tezda qaror qabul qildim**” kabi tarjima qilganimizda gapdagi lingvokulturologik*

ma’no ham o‘z jilosini yo‘qotgan bo‘lardi va hattoki frazeologik birlikning intensivikasi, ya’ni emotsional bo‘yog‘i ham kamaygan bo‘lar edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Alieva, N., & Mukhtoralieva, F. (2023). THE PROCESS OF INCLUSION OF NEOLOGISMS INTO UZBEK LANGUAGE AND ITS ROLE IN THE LIFE OF SOCIETY. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(5), 4-6.
2. Axmadjonova, S. H. (2022). CHARACTERISTIC FEATURES OF WORD FORMATION OF A NEWSPAPER ARTICLE IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *Science and Innovation*, 1(8), 155-159.
3. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari to‘plami. - T.: Muharrir. 2012. –B.8-10.
4. Mashrabovna, N. M., & A'zamjonovna, Y. S. (2022). THEORETICAL CONCEPT OF POLITENESS BASICS IN DIFFERENT-REGIONAL VARIATIONS. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(25), 25-27.
5. Mirzayeva, D., & Sanginova, D. (2022). CONTEXTUAL MEANING OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND FEATURES OF TRANSLATION ISSUES. *Science and Innovation*, 1(6), 820-824.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. T., 1978
7. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси шаклланиши масалалари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 316 б.
8. Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини: Ф.ф.ф.д. ... дисс. – Термиз, 2022. – 139 б.